



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA XORIJIY TILI VA ADABIYOTI YO'NALISHI TALABALARINING MEDIA KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Muallif: Raxmonova Shalola Faxriddin qizi¹

Affiliyatsiya: Ingliz tili o'qituvchisi, ISFT instituti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19676486>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada "Xorijiy tili va adabiyoti" talabalarining media kompetensiyasini zamonaviy texnologiyalar orqali rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Unda xorijiy media matnlarni tanqidiy tahlil qilish va shaxsiy media mahsulot yaratishning bosqichma-bosqich modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: media kompetensiya, mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, loyihaviy ta'lim, media matn tahlili.

KIRISH

XXI asr axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asri sifatida inson faoliyatining barcha jabhalarini, jumladan, ta'lim tizimini ham tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda axborot oqimining tezlashuvi va globallashtirish jarayonlari kelajak mutaxassislaridan nafaqat o'z sohasining bilimlarini, balki katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash, ularni tahlil qilish va saralash ko'nikmalarini ham talab etmoqda. Bu ehtiyoj, ayniqsa, "Xorijiy tili va adabiyoti" yo'nalishi talabalarini uchun o'ta muhimdir, chunki til – madaniyat va axborot tashuvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Media kompetensiya – bu turli xil shakldagi media xabarlarini izlash, tushunish, tanqidiy tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatidir. Xorijiy til o'qituvchilari va filologlari o'z kasbiy faoliyatida bevosita xorijiy media manbalari, yangiliklar, adabiy matnlar va audiovizual kontentlar bilan ishlaydilar. Shu sababli, ularning media kompetensiyasini rivojlantirish an'anaviy ta'lim doirasidan chiqib, zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan innovatsion metodikalarni joriy etishni taqozo etadi.

Ushbu tezisning asosiy maqsadi – xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabalarining media kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va amaliy metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

ASOSIY QISM: ILMIY-NAZARIY ASOSLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Media kompetensiya tushunchasi so'nggi o'n yilliklarda pedagogika va psixologiya fanlarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. YuNESKO tamoyillariga ko'ra, media va axborot savodxonligi (MIL) fuqarolarning axborot jamiyatida to'laqonli ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan asosiy huquqlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Xorijiy til ta'limida media kompetensiya uchta asosiy komponentdan iborat:

Kognitiv (bilish) komponenti: Turli media vositalarining tabiati, ularning jamiyatdagi o'rni, ta'sir mexanizmlari va xorijiy til hamda adabiyotni o'rganishdagi ahamiyati haqidagi bilimlarga ega bo'lish;

Operatsional-faoliyat komponenti: Xorijiy tildagi axborotni izlash, saralash, qayta ishlash, shuningdek, turli raqamli platformalar yordamida o'z fikrini yozma va og'zaki tarzda ifodalash qobiliyati;

Aksiologik (qadriyat-tanqidiy) komponent: Media matnlarning madaniy-mafkuraviy xususiyatlarini, ulardagi yashirin ma'nolarni tushunish, axborotning ishonchliligini baholash va stereotiplarni tanqidiy tahlil qilish.

"Xorijiy til va adabiyoti" yo'nalishida an'anaviy o'qitish asosan grammatika, leksika va badiiy matnlar tahliliga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuv tilni jonli, real media muhitda o'rganishni talab qiladi. Bunga podkastlar, ijtimoiy tarmoqlar, xorijiy ommaviy axborot vositalari (BBC, CNN, The New York Times va boshqalar) hamda raqamlashtirilgan adabiyot arxivlari kiradi. Ushbu manbalar talabalarga tillarni nafaqat lingvistik nuqtai nazardan, balki sotsiomadaniy jihatdan ham chuqur tushunish imkonini beradi.

Talabalarda yuqorida sanab o'tilgan ko'nikmalarni shakllantirish uchun an'anaviy ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar yetarli emas. Interfaol, muammoli va loyihaga asoslangan yondashuvlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Quyida ushbu metodikaning amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng samarali usullari va zamonaviy texnologiyalari keltirilgan.

Loyihaga asoslangan ta'lim (Project-Based Learning - PBL) va Raqamli hikoyanavislik (Digital Storytelling). Bunday ta'lim turi talabalarning muayyan muammo ustida izlanishi va o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llashini ta'minlaydi. Bunda talabalar ma'lum bir adabiy asar (masalan, V. Shekspir yoki E. Xeminguey asarlari) asosida xorijiy tilda raqamli hikoya (video, audio-podkast yoki multimedia taqdimoti) yaratadilar. Bu jarayonda ular adabiy matnni tahlil qiladilar, stsenariy yozadilar, audio va video montaj dasturlaridan (Canva, Adobe Premiere, Audacity) foydalanadilar. Bu usul talabaniy til ko'nikmalarini o'stirish bilan birga, ularning ijodiy qobiliyatlarini hamda media maxsulot yaratish bo'yicha amaliy (operatsional) kompetensiyalarini shakllantiradi.

Media matnlarning tanqidiy-diskursiv tahlili (Critical Discourse Analysis). Bu metod talabalarni ingliz (yoki boshqa xorijiy) tilidagi ommaviy axborot vositalari xabarlarini tahlil qilishga o'rgatadi. Bu usulda mashg'ulot davomida talabalarga bir xil voqeani turli xil siyosiy yoki madaniy qarashlarga ega bo'lgan axborot agentliklari (masalan, G'arb va Sharq OAVlari) qanday yoritgani solishtirish uchun beriladi. Talabalar ochiq va yashirin manipulyatsiya usullarini, metaforalar, evfemizmlar va pragmatik urg'ularni xorijiy til doirasida ajrata bilishni o'rganadilar. Bu bevosita talabaniy tanqidiy va aksiologik mediasavodxonligini rivojlantiradi.

"Teskari sinf" (Flipped Classroom) texnologiyasi talabalar nazariy ma'lumotlarni mustaqil ravishda media vositalar (video ma'ruzalar, podkastlar, onlayn maqolalar) orqali uydan o'zlashtiradilar, auditoriyada esa o'qituvchi boshchiligida muhokama, tahlil va amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Adabiyot tarixi bo'yicha darsdan oldin o'qituvchi talabalarga TED Talks platformasidan ma'lum bir adabiy oqim yoki muallif haqidagi videoni ko'rishni va u bo'yicha onlayn so'rovnoman (Google Forms, Quizizz) to'ldirishni vazifa qilib beradi. Auditoriya vaqti to'g'ridan-to'g'ri interfaol muloqot va qiyin savollarni muhokama qilishga sarflanadi. Talaba xorijiy tildagi videoni mustaqil tushunishga harakat qiladi va axborotni filtrlashga o'rganadi.

Yuqirda sanab o'tilgan usullar bilan bir qatorda bugungi kunda tillarni o'rganishda sun'iy intellekt (ChatGPT, Grammarly, DeepL) va tillarning milliy korpuslari ulkan o'zgarishlar yasamoqda. Ushbu usulda talabalarga sun'iy intellekt yordamida yozilgan xorijiy tildagi badiiy esse va inson tomonidan yozilgan essenini farqlash vazifasi beriladi. Yoki korpus lingvistikasi (masalan, British National Corpus) vositasida ma'lum bir so'zning tarixiy asarlarda qanday ma'nolarda qo'llanilganini tadqiq etish buyuriladi. Talabalar raqamli vositalardan nafaqat ma'lumot olishda, balki lingvistik tahlil o'tkazishda ilmiy vosita sifatida foydalanishni o'rganadilar. Shuningdek, sun'iy intellekt berayotgan axborotni doim ham haqiqat deb qabul qilmaslik (fact-checking) ko'nikmasi shakllanadi.

Ushbu metodikalarning barchasini ham qo'llash va amaliyotga tatbiq etish uchun bir qator pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim:

- ✓ **O'qituvchining o'zida media kompetensiyaning yuqori darajada ekanligi:** Professor-o'qituvchilar zamonaviy axborot muhitida erkin harakat qila olishi va doimiy ravishda o'z raqamli malakalarini oshirib borishi kerak;
- ✓ **Moddiy-texnik bazaning ta'minlanganligi:** Oliy ta'lim muassasalarida yuqori tezlikdagi internet, interfaol doskalar, til laboratoriyalari (Moodle, Canvas kabi LMS tizimlari bilan integratsiyalangan holda) mavjud bo'lishi talab etiladi;
- ✓ **Fan dasturlarini integratsiyalash:** "Amaliy til amaliyoti", "Xorijiy adabiyot tarixi", "Tarjima nazariyasi" kabi fanlar dasturiga media va axborot savodxonligiga doir mavzular sillabus darajasida kiritilishi zarur.

Tabiiyki ushbu jarayonda talabalarning media kompetensiyasini baholash uchun maxsus mezonlar (rubrikalar) ishlab chiqilishi kerak. Ular quyidagi parametrlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- ✓ *Axborotni qidirish va saralash tezligi hamda aniqligi* (to'g'ri va ishonchli xorijiy manbalarni tanlay olishi);
- ✓ *Tahliliy chuqurlik* (xorijiy matndagi noaniqliklarni, tarafkashliklarni va madaniy xususiyatlarni aniqlay olish darajasi);
- ✓ *Kreativlik va texnik savodxonlik* (yaratilgan media mahsulotning (prezentatsiya, podkast) originalligi, tilning to'g'ri qo'llanilganligi, dizayn va texnik ishlanganligi).

MUHOKAMA VA XULOSALAR

Zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan media kompetensiyani rivojlantirish metodikasi amaliyotga joriy etilganda, quyidagi ijobiy natijalar va o'zgarishlar kuzatilishi bashorat qilinadi:

- **Til o'zlashtirish samarasining oshishi:** Talabalar quruq qoidalar va darslikdagi sun'iy matnlardan qochib, real til muhiti (authentic materials) bilan ishlashga o'tadilar. Bu, ayniqsa, tinglab tushunish (listening) va o'qish (reading) ko'nikmalarining keskin o'sishiga, so'z boyligining zamonaviy va jonli so'zlar hisobiga kengayishiga xizmat qiladi;
- **Madaniyatlararo muloqot qobiliyatining rivojlanishi:** Xorijiy media maydonni tahlil qilish orqali talabalar maqsadli til egasi bo'lgan xalqlarning mentaliteti, qadriyatlari, hazil-mutoyibasi va dunyoqarashini chuqurroq anglaydilar;
- **Kasbiy raqobatbardoshlik:** Oliy ta'limni tamomlayotgan bitiruvchi nafaqat xorijiy til va adabiyot o'qituvchisi, balki tarjimon, kopirayter, SMM-mutaxassis, kontent-kreator yoki jurnalist sifatida ham ishlash imkoniyatini beruvchi qo'shimcha (soft and digital skills) malakalarga ega bo'ladi;

- **Tadqiqotchilik salohiyati:** Talabalar ilmiy maqolalar yozishda Google Scholar, Scopus, Web of Science kabi xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalana olish va xorijiy adabiyotlarni to'g'ri tahlil qilib, iqtibos keltirish malakasini egallaydilar.

Shu bilan birga, jarayon davomida ba'zi qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin. Masalan, axborot ortiqchaligi talabalarda diqqatning bo'linishiga (clip thinking), yuzaki fikrlashga olib kelish xavfi mavjud. Shuning uchun, o'qituvchining vazifasi shunchaki texnologiyani qo'llash emas, balki talabani e'tiborini to'g'ri yo'naltirish, ya'ni ularni "axborot iste'molchisi"dan axborotni aqliy filtrdan o'tkazuvchi "tahlilchi"ga aylantirishdir.

Xulosa qilib aytganda, "Xorijiy tili va adabiyoti" yo'nalishi talabalarining media kompetensiyalarini rivojlantirish – bugungi kun oliy ta'lim tizimidagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Bu jarayon zamonaviy ta'lim texnologiyalari (loyihaviy ta'lim, teskari sinf, raqamli hikoyanavislik, sun'iy intellekt) yordamida izchil, tizimli va maqsadli ravishda amalga oshirilishi lozim.

Taklif etilayotgan metodika xorijiy tilni o'rgatishni texnologik yutuqlar bilan uyg'unlashtiradi. Talabaga xorijiy tildagi matnlarni shunchaki tarjima qilishni emas, balki bu matnlar ortidagi madaniy, ijtimoiy va pragmatik maqsadlarni tanqidiy tushunishni o'rgatadi. Zamonaviy filolog endilikda nafaqat til grammatikasi va klassik adabiyotni biluvchi shaxs, balki global axborot maydonida erkin fikrlay oluvchi, ma'lumotni analiz va sintez qila oluvchi, mediasavodxon va raqobatbardosh mutaxassis bo'lmog'i lozim. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, raqamli gumanitar fanlar (digital humanities) ruhida takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fedorov A.V. (2007). Media education: sociology and theory. Moscow: Information for all.
2. Buckingham, D. (2003). Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Cambridge: Polity Press.
3. Perez-Tornero J.M., Varis T. (2010). Media Literacy and New Humanism. UNESCO Institute for Information Technologies in Education.
4. Jalolov J.J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.
5. Pegrum, M. (2009). From blogs to bombs: The future of digital technologies in education. UWA Publishing.
6. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines. John Wiley & Sons.
7. Yuldashev M.A. (2020). Oliy ta'limda raqamli texnologiyalar va til o'qitish metodikasi. Toshkent, "Fan va texnologiya".